"T A S D I Q L A Y M A N"
"O'zmilliybank" AJ
Toshkent shahar
Bosh boshqarmasi
"Sebzor amaliyot" BXM
boshqaruvchisi v.b.
O.Rashidov

"19" iyun 2026 yil

«O'zmilliybank» AJ Toshkent shahar Bosh boshqarmasi "Sebzor amaliyot" BXM va "Shayxontohur" BXO xodimlari bilan "Korrupsiyani oldini olish va unga qarshi kurashish" yo'nalishidagi belgilangan vazifalar bo'yicha o'tkazilgan yig'ilish

B A Y O N I №

Raislik qiluvchi: "O'zmilliybank" AJ Toshkent shahar Bosh boshqarmasi "Sebzor amaliyot" BXM boshqaruvchi O.Rashidov;

Qatnashganlar: "O'zmilliybank" AJ Toshkent shahar Bosh boshqarmasi "Sebzor amaliyot" BXM va "Shayxontohur" BXO xodimlari; barcha bo`lim boshliqlari;

O'tkazilgan sanasi; 19 iyun 2026 yil

K U N T A R T I B I;

"O'zmilliybank" AJ Toshkent shahar Bosh boshqarmasining 2026 yil 03-iyunda 01-423/09-sonli "Korrupsiyani oldini olish va unga qarshi kurashish" yo'nalishidagi belgilangan vazifalar ijrosini ta`minlash;

-"O'zmilliybank" AJ Toshkent shahar Bosh Boshqarmasi "Sebzor amaliyot" BXM va "Shayxontohur" BXO xodimlarining xuquqiy bilim saviyasini oshirish maqsadida "Korrupsiya bilan bog'liq jinoyatlar sodir etilishiga imkon beruvchi shart-sharoitlar va ularning oldini olish to'g'risida tushuncha berish.

Majlisda "O'zmilliybank" AJ Toshkent shahar Bosh boshqarmasi "Sebzor amaliyot" BXM boshqaruvchi O.Rashidov so`zga chiqib, O`zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyovning 2026 yil 26 dekabr kunidagi Oliy majlis deputatlari va O`bekiston xalqiga yo`llangan "Murojaatnomasida" "Korrupsiyani oldini olish va unga qarshi kurashish" yo`nalishida belgilangan ustivor vazifalar hamda O`zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025 yil 30-dekabr kunidagi PF-270-sonli O`zbekiston Respublikasida "Korrupsiyani oldini olish va unga qarshi kurash tizimini yanada takomillashtirish" to`g`risidagi farmonning tegishli bandlari ijrosini ta`minlash talablaridan kelib chiqib, Toshkent shahar Korrupsiyaga qarshi kurashish xududiy Kengashi malisining 2026 yil 16-maydagi 3-sonli Bayonnomasi ijro uchun yuborilgan bayonnomaning 4-bandini aytib o`tdi.

"O'zmilliybank" AJ tizimida bank iste'molchilari, tadbirkorlar va keng jamoatchilik o'rtasida anonim so'rovnoma o'tkazilgani, ushbu anonim so'rovnoma natijasi bilan tanishtirish va xodimlarning xuquqiy bilim saviyasini oshirish maqsadida ushbu tadbir tashkil qilingani yetkazilib, so'z Axborot xavfsizligi va nazorat bo'yicha bosh mutaxassis I.Davurovga berildi.

Ma'ruzachi so`zida davom etib, Jumladan, mijozlar bilan ishlash jarayonida umuman byurokratiyaga yo'l qo'ymaslik, bank koorparativ etika qoidalariga qat'iy rioya qilish, xizmat vazifalarini vijdonan, halol va yuksak professional darajada bajarish, rasmiyatchilik, soxtakorlik va suiiste'molchilikka yo'l qo'ymaslik, har qanday qonunbuzilishiga, ayniqsa, korrupsiya holatlariga qarshi murosasizlik bilan kurashish, mehnat va ijro intizomi, ichki tartib qoidalariga qat'iy rioya etish, jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlarini qonunda belgilangan tartibda hamda muddatlarda qonuniy, asosli va adolatli hal qili lozimligi batafsil tushuntirildi.

«O'zmilliybank» xizmatlaridan foydalanishda tanish-bilishchilik bo'yicha 5 nafar, qarindosh-urug'chilik holatlarning mavjudligi bo'yicha izohlar qoldirganidan xulosa chiqargan xolda, Xodimlar bilan ishlash Boshqarmasi bosh mutaxassisi Sh.Uzakova tomonidan "Sebzor amaliyo" BXM va "Shayxontohur" BXO xodimlariga O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 29 iyundagi PF-6013-sonli «O'zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar

to'g'risida»gi Farmoni bo'yicha qo'shimcha seminar o'quv mashg'ulotini o'tkazish tavsiya qilindi va so`zni boshqaruvchi O.Rashidovga berdi.

Ma.ruzachi so`zni davom ettirib, Yuqoridagilardan xulosa chiqarib, barcha xodimlar ish faoliyati davomida mavjud qonunlar va bank me'yoriy hujjatlariga so'zsiz rioya etishlari, har qanday qonunbuzilishiga, ayniqsa, korrupsiya holatlariga qarshi murosasizlik bilan kurashish, davlat xizmatchilari yoki boshqa shaxslar tomonidan jinoyat yoki boshqa huquqbuzarlik sodir etishga undovchi murojaatlar yoki hamkasblari tomonidan sodir etilgan yoki tayyorgarlik ko'rilayotgan qonunbuzilishlar haqida o'zining rahbariga zudlik bilan ma'lum qilish lozimligi batafsil tushuntirildi.

Yuqoridagi masalalar va ma'ruza atroflicha muhokama qilindi va kun tartibidagi masala yuzasidan

QAROR QILADI:

1."O'zmilliybank" AJ 2026 yil 03-iyunda 01-423/09-sonli "Korrupsiyani oldini olish va unga qarshi kurashish" yo'nalishidagi belgilangan vazifalar ijrosini ta`minlasj bo'yicha yuborgan ko'rsatma xati bo`yicha «O'zmilliybanki» AJ Toshkent shahar Bosh Boshqarmasi "Sebzor amaliyot" BXM va "Shayxontohur" BXOlarda ijro qilingan deb xisoblansin va bayon nusxasi "O'zmilliybank" AJning "Komplaens tavakkalchiligi" bloki Korrupsiyani oldini olish Boshqarmasiga yuborilsin.

2.Toshkent shahar Korrupsiyaga qarshi kurashish xududiy Kengashi malisining 2026 yil 16-maydagi 3-sonli Bayonnomasi ijro uchun yuborilgan bayonnomaning 4-bandi ijro uchun qabul qilinsin va boshqaruvchi o`rinbosarlari zimmasiga nazorat yuklatilsin.

- "Korrupsiyaga qarshi kurashish to`g`risida"gi O`zbekiston Respiblikasi Qonunni talablariga muvofiq tizimda korrupsiya va boshqa huquqbuzarliklarining oldini olish choralarini ko`rish va ularning sodir etilishiga ko`maklashuvchi sabablar va shart-sharoitlarini bartaraf etish;
- Jismoniy va yuridik shaxslarni koppupsiya faktlariga doir murojaatlarini himoya qilish choralarini ko`rish;
- Har oyda bir marta quyi tizimdagi rahbar va xodimlar ishtirokida korrupsiyaga qarshi kurashish o`quv seminarlarini o`tkazish;
- Xodimlar orasida korrupsion hatti-harakatlarni oldini olish, sog`lom va ishchan muhitni ta`minlash hamda ta`magirlik holatlariga sharoit yaratmaslik choralarini ko`rish;
- Korrupsiyaga moyilligi bo`lgan xodimlarni aniqlash va korrupsiyaviy omillarni bartaraf qilish hamda "Korrupsiyadan holi" muhitni yaratish yuzasidan targ`ibot-tashvqot ishlarini olib borish;
- Ishsiz fuqarolar, ayniqsa ishsiz yoshlar uchun "Huquqlarim nima" mavzusida yo`nalsihlarida treninglar o`tkazish;
- Har bir chorakda anoni so`rovnomalari o`tkazib borish;

3.Xavfsizlik, rejim va axborotni himoyalash Boshqarmasi bosh mutaxassisi I.Davurov hamda Xodimlar bilan ishlash Boshqarmasi bosh mutaxassisi Sh.Uzakovalar tomonidan xodimlarning huquqiy bilim saviyasini oshirish va korrupsiyaviy huquqbuzarliklarning oldini olish bo'yicha davriy ravishda profilaktik tadbirlar o'tkazilsin.

4. Ushbu bayonnoma ijrosini nazorat qilishni o'z zimmamda qoldiraman.

Bayonnomani tuzdi;

Xodimlar bilan ishlash Boshqarmasi
bosh mutaxassisi **Sh.Uzakova**